

BOSHLANG‘ICH SINF ZAMONAVIY ONA TILI DARSALARIDA LEKSIK TUSHUNCHALAR HAQIDA TASAVVUR HOSIL QILISH METODLARI

Mahbuba Qodirova

Termiz davlat universiteti

Pedagogika instituti magistranti

qodirovamahbuba19@gmail.com

Annotation: This article discusses methods of creating lexical concepts in elementary school modern mother tongue lessons, the history of the study of the lexical concept system, and the sources of enrichment and program requirements for teaching lexical concepts in primary education.

Keywords: modern mother tongue, lexical concept, nation, concept, mother tongue and literature, Uzbek language.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы формирования лексических понятий на уроках современного родного языка в начальной школе, история изучения системы лексических понятий, источники пополнения и программные требования к обучению лексическим понятиям в начальных классах.

Ключевые слова: современный родной язык, лексический концепт, нация, концепт, родной язык и литература, узбекский язык.

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf zamonaviy ona tili darslarida leksik tushunchalar haqida tasavvur hosil qilish metodlari, leksik tushunchalar tizimining o‘rganilish tarixi hamda boyish manbalari va boshlang‘ich ta’limdaleksik tushunchalarni o‘rgatishda quyilgan dastur talablari haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy ona tili, leksik tushuncha, millat, tushuncha, ona tili va adabiyot, o‘zbek tili.

Kirish (Introduction): Har qaysi xalqning ona tili va adabiyoti uning milliy ruhi va o‘zligining, madaniy-ma’rifiy olami, milliy g‘oyasining asosi hisoblanadi. Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak – millatning ruhini yo‘qotmakdur” degan hikmatli so‘zları ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Respublikamiz mustaqilligi mustahkamlanayotgandavr ichida ta’lim tizimida bir muncha tub o‘zgarishlar bo’ldi.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan «Ta’lim to’g’risida» gi qonun talablari dadillik bilanhayotga joriy etilayotir. Maktab oldiga qo‘yilgan vazifalarini muvaffaqiyatli ijroetish o‘quvchilarning ilmiy, nazariy jihatdan puxta qurollangan bo‘lishlarini talabetadi. Hozirgi kunda o‘quvchilarga har tomonlama bilim berishda o‘qituvchioldiga katta mas’uliyat yuklanadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari zimmasiga ta’lim samaradorligini oshirish, ilg’or pedagogik texnologiyalar, o‘qitishning interfaol metodlarini o‘zlashtirish va o‘quv-tarbiya jarayoniga tadbiq etish vazifasi qo‘yilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF-4947-son farmoni¹ asosida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada jamiyat

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF-4947-son farmoni //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami. -Toshkent, 2017. - 6сон, 70-модда.

hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishga, shuningdek, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy - intellektual salohiyati, ongu-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish alohida e'tirof etilgan.

Shavkat Mirziyoyev o'zbek tilini rivojlantirish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan chora-tadbirlar to'g'risidagi farmonni imzoladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonni imzoladi. Farmonga muvofiq, 2020—2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiysi hamda asosiy yo'nalishlari tasdiqlandi. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida "O'zbekiston milliy qomusi" jildlarini nashr etishni bosqichma-bosqich ko'paytirib borish, 2020-yilda o'zbek tilining lug'at boyligini oshiruvchi 15 ta lingvistik, sohaviy-terminologik, izohli lug'atlar yaratish ham asosiy yo'nalishlar qatoridan o'rinn olgan. Dasturiy mahsulotlarning o'zbekcha ilovalari va elektron lug'at dasturlarini yaratish, xorijliklar uchun o'zbek tilini o'rgatuvchi dasturlar yaratish farmonda asosiy yo'nalishlar qatoriga kiritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology): So'z tilning ma'no bildiradigan asosiy birligidir. So'z va so'z birikmasi aniq predmetlarni, mavhum tushunchalarni, emotsianni bildiradi[12]. Tilda mavjud bo'lgan barcha so'z va iboralarning yig'indisi lug'at sostavi yoki leksika deyiladi. Leksikalagiya o'zbek tilining sostavini o'rganadigan bo'limdir. Leksikalagiya lug'at sostavidagi so'zlarning nutqda ma'no ifodalash xususiyati, qo'llanish aktivligi, boyib borishi, ba'zi so'zlarning eskirib, iste'moldan chiqib ketishi, ma'no ko'chish hodisasi kabilarni o'rganadi. Shu sababli leksikalagiya lug'at ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi hisoblanadi. Har qanday nutqiy bayon grammatic jihatdan o'zaro bog'langan, mazmunga xos so'z va so'z birikmasining ma'lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi[13]. Kishining lug'ati qanchalik boy va rivojlangan bo'lsa, uning nutqi ham shunchalik boy bo'ladi; o'z fikrini aniq, original va ifodali bayon etishiga keng imkoniyat yaratadi. Shuning uchun lug'atning boyligi, hilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning muhim sharti hisoblanadi. Hozirgi o'zbek adabiy tili ulkan lug'at boyligiga ega. "Ikki to'mlik "O'zbek tilining izohli lug'ati"da oltmis ming so'z berilgan bo'lib, bular umumiyy qo'llaniladigan so'zlarginadir"².

Bunga o'zbek tilida nashr etilgan turli terminologik lug'atlarda o'zbek tili sinonimlari, antonimlari, fraziologiyalari lug'atlarida va turli izohli lug'atlarda berilgan so'zlarqo'shilsa, lug'at boyligi yana ming-minglab oshadi. Bulardan tashqari, juda ko'p so'zlar ko'p ma'noni bildiradi. Masalan, shu izohli lug'atdan bosh so'zning qirqdan ortiq asosiy va frazeologizm bilan bog'langan ma'noda ishlatilishi berilgan[14]. Maktabda nutq o'stirishning muhim vazifalaridan biri lug'at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo'nalishlari ajratish va asoslash, o'quvchilarning lug'atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi[4]. Har qanday nutqiy bayon grammatic jihatdan o'zaro bog'langan, mazmuniga mos so'z va so'z birikmalarining ma'lum izchillikda joylashtirishdan tuziladi. Kishining lug'ati qanchalik boy va rivojlangan bo'lsa, uning nutqi ha shunchalik boy bo'ladi va fikrini aniq chirolyi va ifodali bayon etishga keng imkoniyat yaratadi.

O'zbek tilshunosligi tarixida juda uzoq davrlardan buyon so'z va uning ma'nolari haqida fikr yuritilib kelinadi. Manbalarning ta'kidlashicha, leksikologiya o'zbek tilshunosligida bir butun yo'nalish va alohida bob sifatida XX asrning o'rtalaridan boshlab shakllangan. Bu borada biz o'zbek olimlaridan Faxri Kamolning xizmatlarini eslab o'tishimiz joizdir. Uning —Hozirgi zamon o'zbek tili kursidan materiallari rukni ostida chop etilgan — O'zbek tili leksikasi || katta ahamiyatga ega. O'zbek tili ko'p ma'noli so'zlar hisobiga ham boyib boradi. Hozirgi kunda o'zbek tilining izohli lug'atiga 80 ming so'z kiritilgan. Unda so'zlarning semik ma'nolari izohlab berilgan. Lekin bu lug'atga kiritilmagan, ammo o'zbek shevalalarida ishlatiladigan so'zlarimiz bir talay. Ularni o'rganish, tadqiq etish yuzasidan tilimiz jonkuyarlarining olib borayotgan izlanishlari tahsinga Ma'lumki, o'zbek xalqi tarixiy davrlar mobaynida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqada bo'lib kelgan.

Bu aloqalar o'zaro aloqada bo'lgan xalqning tiliga ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazadi. O'zaro ta'sir natijasida tilning barcha bo'limlarida: fonetika, leksika, grammatica kabilarda o'zgarishlar yuz beradi. Tildagi

² G'ulomova A, Qobilova B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. T. "O'qituvchi", 1995 yil, 23-bet.

o`zgarish va rivojlanish tilning leksikasida kuchli bo`ladi. O`zbek xalqi qardosh bo`laman tojiklar bilan qadimdan aloqada bo`ldi[15]. SHuning tarixiy sabablar bilan bog`liq holda arab, ruslar bilan aloqada bo`ldi. Hozirgi davrga kelib bir qancha xorijiy davlatlar bilan do`stona aloqalar o`rnatgan. Bular o`zbek tili leksikasiga ko`plab so`zlarning o`zlashishiga sabab bo`lmoqda.

-Leksikologiya haqida umumiy ma'lumot.

Biz o'z fikrimizni gap bilan ifodalaymiz. Gap so`zlardan tuziladi. So'z

tilingniqurilish materiralidir, shuning uchun so'zni bilmay turib tilni bilish mumkun emas. Tildagi so'zlarning barchasi tilning lug'at boyligini, ya'ni leksikasini tashkil qiladi.

“Leksika” so'zi yunoncha “leksis” so'zidan olingan bo'lib “so'z” degan ma'noni bildiradi. “Leksikalogiya” so'zi esa “leksis” – “so'z”, “logos” – “talumot” degan ma'nolarni bildiradi. Demak, leksikalogiya so'z va uning ma'nosi haqidagi ta'limot, fan ekan.

-So'z va uning ma'nosi haqida[16].

“Ma'lum ma'no bilan bog'langan va morfologik shakllangan tovush va tovushlar birikmasi so'z sanaladi.”

So'zning ikki tomoni: moddiy tomoni (tovush yoki harflar ketma-ketligi) va ma'no tomoni mayjud.

So'zning shakli, ya'ni tashqi tomoni tovush [harf] lardan iborat bo'lib, bu xususiyatlari fonetikada o'rganiladi. So'zning ichki tomoni esa unda ifodalangan ma'nolar bilan tavsiflanadi”.³

SO'ZNING ATASH MA'NOSI. So'zning borliqdagi shaxs, narsa, belgi, harakat, miqdor, holat payt, o'rinn, sabab kabi tushunchalarni ifodalashi atash[lug'aviy] ma'nosi deyiladi.. *chaqaaloq* [yangi tug'ilgan inson], *yo'lbars* [yirtqich hayvon] yashil [rang], uchmoq [havoda harakatlanmoq], sakiz [miqdor nomi], ertalab [payt], tez [holat], pastda [o'rinn], noiloj [sabab][5].

Mustaqil so'zlarga atash ma'nosiga egadir. Mustaqil so'zlarga mansub bo'lган *olmoshlar* atash ma'nosiga ega bo'lagan so'zlarga ishora qiladi; Keyin Mulla Fazliddin devorga homaki naqsh chizayotganda Xonzoda begin uning oldiga kelib, ishini qiziqib tomosha qila boshladi. (P.Q.) Bu gapdagi Mulla Fazliddin so'ziga uning olmoshi ishora qilyapti.

So'z tanlash va qo'llash

Nutqda so'zni to'g'ri tanlash va qo'llash nutq madaniyatining muhim shartlaridan hisoblanadi. Fikrni tinglovchiga tushunarli va aniq yetkazishda so'zni to'g'ri tanlash lozim. So'z tanlashda quyidagilarga e'tibor beriladi;

-so'zning lug'aviy ma'nosini bilgan holda tanlash;

-tanlangan so'zni aniq talaffuz eta olishni nazarda tutish;

-so'zning suhabatdoshlarga tushunarli bo'lishini hisobga olish;

-so'zning mano xususiyatlariga asoslanib, uni nutq maqsadiga muvofiq tarzda tanlash;

Atamalar, kasb – hunarga oid so'zlar faqat bir manoni ifodalash uchun qo'llaniladi. Bular bir manoli so'zlardir. Masalan; payola – choy ichishga mo'ljallangan idish; leksikologiya – so'z manolarini o'rganuvchi fan manosidagina qo'llanadi. So'zlar ikki va undan ortiq manoni ifodalasa ko'p manoli sanalaadi. Avval bir manoda qo'llangan so'zning ko'p manolarda ishlatilishi ko'p manolikni vujudga keltiradi[17]. Masalan; qochoqni tutmoq, parda tutmoq, suv tutmoq, o'zini tutmoq.

So'z va leksema. Ma'lum ma'no bilan bog'langan va morfologik shakillangan tovushlar birikmasi grammatic ma'nosiz, faqat leksik (lug'aviy) ma'no bildiruvchi til birligi leksema hisoblanadi. SO'Z marfologiya birligi sifatida, leksima esa leksikalogiya birligi sifatida bir-biridan farqlanadi. So'zlar leksema va grammatic qo'shimchalariga bo'linadi. Lug'atlarda bosh so'z sifatida leksemalar beriladi.

Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar[6].

Tahlil va natijalar (Analysis and results): Ayrim so'zlar gapdan tashqarida ham, gap ichida ham bir ma'noni bildiradi. Bunday so'zlar bir ma'noli (monosemantik) so'zlar deyiladi. Gapdan tashqarida bir ma'noni, gap tarkibida boshqa ma'noni ifodalaydigan so'zlar ko'p ma'noli (polisemantik) so'zlar deyiladi. *Qush, chumchuq, men, sen, kechagi, bugun* kabi so'zlar bir ma'noli so'lardir. *Tosh yo'l, tosh*

³ A.Nurmonov,A.Sobirov,N.Qosimova Hozirgi o'zbek adabiy tili(Akademik litsey talabalari uchun darslik) II kitob.-T:Ilm ziyo,2013,-183 bet.

yurak.Bunda tosh so'zi ko'p ma'noli so'zdir.Polisemiya (ko'p ma'nolik) tilidagi deyarli barcha turkum so'zlarga xosdir.

Yasovchi qo'shimchalarining ko'p ma'noiligi sababli ham yasama so'z ko'p ma'noga ega bo'lishi mumkin: *Yog'li (yog'i bor) qo'lini sochiqqa*

6.So'zning o'z va ko'chma ma'nolari

Ayrim so'zlarning o'z ma'nosi va ko'chma ma'nosi bo'ladi.

So'zning gapdan tashqarida ifodalaydigan,nutq jarayoniga bog'liq bo'limgan ma'nosi bosh (o'z) ma'no deyiladi.

So'zning boshqa so'zlar yordamida aniqlanadigan, izohlanadigan ma'nosi ko'chma ma'no deyiladi: *ko'z-ko'rish a'zosi (o'z ma'nosi), ignaning ko'zi-ko'chma ma'no; Bosh-odamning tana a'zosi (o'z ma'nosi), ko'chaning boshi-ko'chma ma'no*. O'zbek tilida ma'no ko'chishning quyidagi usullari mavjud: *Ma'no ko'chishi usullari* 1.Tilimizdagи mavjud so'zlar ma'nolarining o'sishi Ma'no ko'chishi, ma'nuning kengayishi yo torayishi tarzida ro'y beradi. 2.Borliqdagi narsa hodisa belgi-xususiyat harakat holat nomlari ma'lum bir asosga ko'ra boshqa narsa hodisa belgi xususiyat, harakat holatning nomi sifatida xizmat qiladi[7]. M:*burun sozi "tirik organizmning yuz qismidan bo'rtib chiqqan nafas olish organi "* ma'nosini ifodalash bilan birga "*yerning suvlikka tomon bo'rtib chiqqan qismi*" ma'nosini ham ifodalaydi[18]. Predmetlar o'rtasidagi shakily o'xshashlik birining nomi ikkinchisining o'rniga asos bo'lgan.

3.So'zlarda ma'no ko'chishi nima asosida ko'chishiga ko'ra metonimiya, *sinekdoxa, vazifadoshlik, kinoya kabi* turlarga bo'lindi.

a) *Metafora* 1. Nutqimizda eng keng tarqalgan ma'no ko'chish usuli metaforadir. 2.Metafora (yunoncha ko'chirish) bir predmet nomining boshqa predmet nomiga o'xshashlik asosida ko'chishidir M: tandirning og'zi birikmasida og'iz so'zining ma'nosi odam yoki hayvon og'ziga tashqi o'xshashligi asosida vujudga kelgan. 3.Demak metaforada predmet belgi harakatlar o'xshashlik asosida boshqa predmet va harakatga ko'chadi. M: *qozonning qulog'i, varrakning dumi, rubobning qorni, kemaning tumshug'I, egarning qoshi, o'choqning og'zi, tog'ning etagi, qora niyat, sovuq xabar, shirin xotira, achchiq haqiqat, bemaza gap sayoz asar, yengil ta'zim yorug'yuz, oltin yproq, kumush qish, zumrad bahor, po'lat iroda, temir intizom, majlisda savalanmoq, qarzini uzmoq, Qashqadaryo bilan ulanmoq...* 4.Narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik turli asosda bo'lishi mumkin. a) Ikki predmet o'rtasidagi shakliy o'xshashlik; M: Odam qulog'i—qozon qulog'I

b) Ikki predmet qayerda joylashishi bo'yicha o'xshashlik M: *Itning dumi ---- samolyotning dumi* 5. Formula: MAVHUM OT + ANIQ OT shaklidagi ko'chma ma'noli birikmalar ham,odatda, metaforani yuzaga keltiradi. M:*hayotostonasi, visol uyi sabr kosasi, ishq bog'i, hayo ko'chasi, hasad o'ti, takabburlik libosi, g'amza o'qi* Bular adabiyotshunoslikda istiora deb nomlanadi. 6.Ba'zan kishi ismlari metafora usulida ko'chishi mumkin. M: *Yo'lbars, Bo'riboy, Qoplombek, Lochin, Gulchehra, Feruza, Yoqutoy, Asalxon, Arslon, Charos, Ozoda...* 7.Metaporalarga juda yaqin bir vosita "O'xshatishlar" bo'lib,ular yordamida shaxs,predmet bir biriga o'xshatiladi,qiyos qilinadi. -day; -dek; go'yo, yanglig', singari, xuddi kabi o'xshatish vositalaridan ham foydalilanadi. M: *Ulug'bek — misoli oftob Nutq jarayonida metaforadan o'rinni foydalanish nutqimizni ta'sirchan, jozibali qiladi.* So'zlovchining badiiy-estetik qobiliyatini namoyon etadi.

b) *Metonimiya* 1.Metonimiya yunoncha *qayta nomlash* demakdir. 2.narsa va hodisalar o'rtasida makon va zamondagi o'zaro aloqadorlik asosida birining nomi

ikkinchisiga ko'chishi metonimiya deyiladi. M: *Fuzuliyini oldim qo'limga* (aslida Fuzuliy asarlarini; Shoir va uning asarlari o'rtasidagi bog'liqlik) *Samovarda osh yedik* (aslida choyxonada; choy ichiladigan joy bilan choy qaynatiladigan buyum o'rtasidagi aloqadorlik) *Zal kulib yubordi* (aslida zaldagi odamlar) "Rossiya"ga qanday borsam bo'ladi? (bekatdagi yo'lovchi murojati) "Besh bolali yigitcha" *kelmadimi?* (kitobxon savoldidan) *Ichak-chavog'im qolmadi endi kalla sotaman* (qassobning gapi) *Navbatim sumka ko'targan "jinsi" dan keyin* (xaridorning gapi) "Navoiyni kechadan beri ko'tarib yuribman" (o'quvchining nutqidan) 3.Demak, so'z ma'nolarining o'xshashlik emas, makon va zamondagi o'zaro bog'liqlik aloqadorlik asosida ko'chishi metonimiya sanaladi 4.ba'zan kishi ismlari ma'lum bir hodisa bilan bog'liq bo'lishi mumkin. M:*Ramazon Juma, Odina, Safar, Hayit* 5.Metonimiya asosida ko'chma ma'no hosil qilish fikrimizni lo'nda ifodali ta'sirchan bayon qilishning bir yo'li sanaladi[8].

c) *Sinekdoxa* 1.Sinekdoxa yunoncha *birgalikda angash yoki nazarda tutmoq qo'shib fahmlamoq* so'zidan olingen bo'lib bo'lak orqali butunni yoki bo'lak orqali butunni anglatish mumkin. 2.sinekdoxa

metonimyaning bir ko'inishi bo'lib, bunda ma'no butun va qism munosabatlari asosida ko'chadi. 3.Shunga ko'ra sinekdoxa 2 xil bo'ladi. A)qism orqali butun ma'nosini ifodalash mumkin. b)Butun orqali qism ma'nosini ifodalash mumkin M: *Tirnoqqa zor bo'ldi* (qism orqali butun ya'ni farzandga zor bo'ldi demasdan shu (farzandning tirnoq) orqali farzand ma'nosini anglashiladi) *Bitta shu tuyog bilan 5 bolani qanday boqaman?* (Qism orqali butun chunki tuyog deganda sigirdir echkidir boshqa boshqadir tushuniladi) *G'ildirakni yurgizib ko'cha bo'yи signal chalib ketdi*[19]. *Cho'loqqa achinish bilan qaradi Yig'ilishga mo'ylovni chaqirib keldi.* Ma'no ko'chishining bu turi ham nutqimizning ta'sirchanligini oshirishda ifodali jozibali bo'lishda kata ahamiyatga ega.

d) **Vazifadoshlik** 1. Vazifadoshlik narsa va hodisalar o'rtasidagi vazifaviy birxillik asosida birining nomi orqali ikkinchisining ifodalananishidir. M: Ko'chalarni chiroqlar

yop-yorug' qilib turibdi. Chiroq piligini pasaytirdi. Yuqoridagi ikki gapda qo'llangan chiroq so'zi bir xil vazifa bajaruvchi 2ta bir-biriga o'xshamaydigan narsalarni ifodalayapti. Birinchi gapda elektr orqali yorituvchi noksimon (lampochka)asbobni; ikkinchi gapda esa kerosinga pilik solish vositasi bilan yorituvchi asos va shisha qismlaridan tarkib topgan asbobni bildiradi. Bu asboblarning makon va zamonda aloqadorligi yo'q. Bu asboblar shakliga ko'ra bir-biriga o'xshamaydi. Lekin vazifasi bir ular vazifadosh ya'ni yozish vazifasini bajaradi. 2. Vazifadoshlik o'xshashlikka asoslanishi bilan metaforaga yaqin turadi. Farqi shundaki metaforada predmet belgi harakat o'xshashligi asos qilib olinadi Vazifadoshlikda esa ular bajaradigan predmet bajaradigan vazifalar o'xshashligi asos qilib olinadi. 3. Ba'zan maq'no ko'chishida metafora va vazifadoshlik usullari birga qo'llanishi mumkin. Bu tilshunoslikda funksional metafora deb nomlanadi M: Odamning tishi-arranging tishi (Bunda ham shakily ham vazifalar o'xshashligi) 4 Vazifadoshlik asosida vujudga kelgan so'zlarni bilish ularning ilgari qanday shakldaligini narsalarni ifodalaganini bilish tilimiz imkoniyatlarini naqadar boy ekanligini his qilishimizga yordam beradi [9].

e) Kinoya 1.Kinoya arabcha bir narsa demoq boshqa narsa tushunmoq ma'nosini bildiradi. 2.Bunda so'zlar o'z ma'nosida emas teskari aks ma'noda tushuniladi. 3.Kinoya usuli og'zaki nutqda maxsus intonatsiya ohang orqali yozma nutqda qo'shtirnoqqa olish orqali ifoda etiladi. M: Feruz nemis tilini "suv qilib ichgan". Jasur urishganda bisotidagi eng "chiroyli" so'zlarni ishlatdi.

ESLATMA: Ba'zan bir so'zning ma'nosi konteksda turli usullar bilan ko'chishi mumkin. (deylik bosh so'zi) Badanim o't bo'lib yondi, boshim og'rib, ko'zlarim tindi. (o'z ma'nosida) Tog'ning ko'rki tosh bilan odam ko'rki bosh bilan (aql metonimiya) Uning boshi yaxshi ishlaydi. (miyasi Sinekdoxa) butun orqali qism.

Bir boshga bir o'lim (sinekdoxa inson) qism orqali butun Yoki: Quloq so'zini olamiz Qiy-chuv baqir-chaqir quloqni kar qildi. (o'z ma'nosida) Qozonchining ixtiyori qaydin quloq chiqarsa (metafora shakl) Adl qulog'ila esgit holimi (Mayhum ot + aniq ot=metafora) Eshitgan quloq nima deydi ? (Oism-butun inson sinekdoxa)[10].

ESLATMA: Yuqoridagi so'z ma'nolarini ko'chishini ko'rib o'tdik. Ba'zan ifodalangan gapning ko'chma tag ma'nosi ham bo'ladi. Tag ma'no gap orqali ifodalangan gapning zamirida yotgan ko'chma ma'nodir. M: Xotin: Sizga tekkuncha alvastiga tegsam bo'lmasdimi? Er: Afsuski, yaqin qarindoshlar o'rtasida nikoh man etilgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations): Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida lug'at ustida ish olib borisho quvchilarning so'z boyligini oshirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilargafaqtgina so'zni o'rganibgina qolmay, balki so'zning ma'nolarini ham o'rganibolishga imkoniyat yaratdik. Masalan: olma-ot, olma-fe'l, olma-daraxt mevaning bir turi, olma-harakat nomi ekanligini bilib oldilar. O'quvchilarga lug'at daftarchasi tuzdirdik.

Darslarda lug'at minuti o'tkaziladi. Imlo lug'atlari bilan ishlandi. Izlanishga

Darslarda lug’at himmat o’tkaziladi. Hino lug’atni shun ishlardi. Izlamisiga ham alohida e’tibor berdi. Masalan: «O» tovushi yoki «A» tovushi bo'yicha so'zlar topib keling kabi. Ko'rgazmalilik, jadval, sxema, taraqatma materiallardan ham foydalandik. Tadiqiqot davomida bolalarni shu so'zlarni o'zlarida qanday qabul qilinishini kuzatdik. Turli xil mashg'ulotlardan foydalandik[11].

Lug'at ustida ishslash jarayonida quyidagilarga e'tibor berdik.

- har bir ish turlarini tashkil etishda ma'no jihatidan o'zaro bog'liq bo'lgan bir guruh so'zlardan kerakli so'zni tanlashga o'rnatdik;
 - yangi so'zlarni eshitib, tushunib faol qo'llashni muayyan izchillikda o'z

fikrini bildirish maqsadida ushbu so'zlarni turli vazifada qo'llash imkonini yaratdik.

- muammoli vaziyatni yaratdik.
- zamonaviy usullarda lug'at ustida ishlashning turli mashg'ulotlarda ko'rsatdik.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sod farmoni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. -Toshkent, 2017. - 6-son, 70-modda.
2. G'ulomova A, Qobilova B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. T. "O'qituvchi", 1995 yil, 23-bet.
3. A.Nurmonov,A.Sobirov,N.Qosimova Hozirgi o'zbek adabiy tili(Akademik litsey talabalari uchun darslik) II kitob.-T:Ilm ziyo,2013,-183 bet.
4. Kabilova Sayyora, & Aminova Zebo Hamrokulovna. (2021). OLD TRADITIONS OF AGRICULTURE OF SURKHAN VALLEY. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 2(04), 43–49.
5. Kadirova, D., & Sayfiddinovich, X. R. (2021). Ethnopedagogical Fundamentals of Development of Primary School Education in our Multinational People. Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали, 1(6), 41-49.
6. Rakimov, B. S., & Yormatov, F. J. (2019). TOPONOMICAL ANALYSIS OF KHATAK AND DAHPARAKENT VILLAGES. Ўтмишга назар журнали, 19(2).
7. SAYYORA, K. Metaphor in Newspapers. JournalNX, 7(1), 210-214.
8. Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna. (2021). PRIMARY EDUCATION TEACHER AND STUDENT TEACHING ACTIVITIES AND SYSTEM OF PERSONAL VALUES. European Scholar Journal, 2(7), 32-33. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/1056>
9. Xurramov, R. S., Zokirov, J. G. O., & Temirova, M. K. Q. (2021). ETHNOPEDAGOGICAL FUNDAMENTALS OF DEVELOPING INTEREST IN NATURAL AESTHETICS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Scientific progress, 2(7), 832-839.
10. Xurramov, R. S., Zokirov, J. G. O., & Xurramov, M. S. (2021). USE OF THE HERITAGE OF CENTRAL ASIAN THINKERS IN THE FORMATION OF ETHNOPEDAGOGICAL, ETHNOGRAPHIC VIEWS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Scientific progress, 2(7), 846-853.
11. Zokirov, Javohir Gaybullo Ogli, & Xurramov, Rustam Sayfiddinovich (2021). FORMATION OF ETHNOPEDAGOGICAL VIEWS AMONG STUDENTS THROUGH THE STUDY OF THE LIFE AND WORK OF ALISHER NAVOI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (10), 339-343.
12. Абдумуратова, С. (2018). ВЛИЯНИЕ НА СОВРЕМЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ АЛИШЕРА НАВОЙИ. Гуманитарный трактат, (25), 96-98.
13. Абдумуратова, С.С. (2022). ЭТНОКУЛЬТУРНЫЕ И СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ. Академические исследования в области педагогических наук , 3 (1), 745-747.
14. Ёрматов, Ф. (2021). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА АҲОЛИНИ ИЖТИМОИЙ ҲИМОЯЛАШНИНГ КУЧАЙТИРИЛИШИ ВА ҲАЛҚИМИЗ ҲАЁТИДАГИ МУАММОЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШДАГИ ЎЗГАРИШЛАР (2016-2021 ЙИЛЛАР). ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 4(11).
15. Ёрматов, Ф. Ж. (2010). Ўзбекистонда аҳолини ижтимоий ҳимоялаш тизими: ҳолати, шаклланиш жараёни, ривожланиш истиқболлари (1991-2010 йиллар. Жанубий вилоятлар мисолида) (Doctoral dissertation, Автореф. дис.... т. ф. н. Тошкент, Мирзо Улуғбек Номидаги Ўзбекистон Миллий университети, 2010, 30 б).
16. Ёрматов, Ф. Ж. (2019). МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЖАНУБИЙ ВИЛОЯТЛАРИДА АҲОЛИНИНГ ИЖТИМОИЙ ҲИМОЯСИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, (25).
17. Сайдовна, А.С. (2022). Язык является главным приоритетом в обучении. ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НЕФОРМАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ , 2 (2), 108-110.

-
18. Файзуллаева, М. Х., & Ёрматов, Ф. Ж. (2019). ТУРКИСТОН ХАЛҚЛАРИНИНГ ИРРИГАЦИЯ ИНШООТЛАРИ БОРАСИДАГИ ТАЖРИБАСИ РОССИЯ ШАРҚШУНОСЛАРИ ТАЛҚИНИДА. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, (26).
 19. Ярматов, Ф. Д. (2020). Позитивные изменения в системе социальной защиты населения Узбекистана (1991-2019 гг., на примере южных регионов). Бюллетень науки и практики, 6(8).